

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR


DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

# 2022

**ERNEST XEMINGUEY**  
(1899-1961)

Chol qushlar va zimlesa, belirin o'sha qoldirg'ochlarga achiqib ketar va qushlar turmushil, qirin-qora va katta kuchli qushlarni hisobga olmayardagi, bizning kuri kechirishimizga qarayardida, ham juda sige. Okean gohisa shu qadar ham berahim bo'tar elan, himo uchun qushlarni manz bi dengiz qoldirg'ochlari singan nozik va shikasta qilib jarayganler. Okean sadoq va zo'zal, urmo u zibo tozakdan shunday shaf-qatsiz bolib ketadiki, uning ustini oziq ilmijida charyz urib chonig'is, olib va mangli ovoz bilen bir-birlariga jar belis uchjan su qushlar ungi intillaten bentnoye salib va mo'ri ko'munkuli.

"CHOL VA DENGIZ" ASARI



**AVGUST**  
**№43**

Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



CONFERENCES.UZ

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
25-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-25**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-25**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 43-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ГЕОГРАФИЯ**

**1. Eraliyeva Gulnora Elmurotovna**

GEOGRAFIYA FANIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN  
FOYDALANISH ..... 7

**2. Erkinov Rustam Atabayevich**

IQLIM O'ZGARISHLARI VA UNING SALBIY OQIBATLARI ..... 10



## ГЕОГРАФИЯ

### GEOGRAFIYA FANIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Eraliyeva Gulgora Elmurotovna

Xovos tuman 9-IDUM geografiya fani o'qituvchisi

Xov9maktab@umail.uz

#### Annotatsiya

Maqolada geografiya fanini o'qitishda yangicha usullardan foydalanish, fan tizimiga zamonaviy yondashish va innovatsiyalar kiritish, dars jarayonida turli pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash hamda o'quvchilarning dasrga qiziqishlarini ortishini, diqqatini jamlashini, mustaqil fikr yurita olishini haqida qisqacha mazmuni yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** ta'lif jarayoni, axborot kommunikatsiya, animatsiyalar, internet ma'lumot.

Geografiya ta'lifi mazmunini asosan iqtisodiy-ijtimoiy geografiya va tabiiy geografiya tashkil etadi. Shuning uchun ham geografiya fanlar tizimida (ayniqsa iqtisodiy-ijtimoiy geografiya va tabiiy geografiya) voqeа va hodisalarini yoritish, ularni o'quvchilar ongiga talab darajasida etqaza bilish, berilayotgan ma'lumotlarni ko'rgazmalilik darajasini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Bu jarayonning asosida geografiyaning tili bo'lgan xaritalar, globuslar, turli xil chizmalar yotadi.

Bizga ma'lumki, geografiya yunoncha "geo"-yer, "grafo"-yozaman degan manoni bildiradi. Geografiya deb-o'zaro chambarchas bog'langan, yerning geografik qobig'ining tabiiy va ishlab chiqarish komplekslarini, ularning tarkibiy qismlarini o'rganadigan tabiiy (tabiiy geografiya) va iqtisodiy (iqtisodiy va ijtimoiy geografiya), hamda maxsus geografik fanlar tizimiga aytildi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya-ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish qonuniyatlarini, aholini yashash tarzi va hayot faoliyati mezonlarini, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar doirasida o'rganishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan uddaburonlik bilan foydalanishi lozim bo'ladi. Har bir mavzuga oid xaritalarni, globuslarni, turli xil chizmalarini internet vositalari orqali topib, videoproektorlar orqali namoyish etish asosida o'quvchilar ongiga geografiyanı tub mazmun mohiyatini ochib bera olishimiz mumkin.

Zero geografiya ta'lifining asosiy masqsad va vazifalari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Maktab geografiyasini qayta qurishning ilmiy-uslubiy kontseptsiyasi"da quyidagicha belgilab berilgan.

-dunyoniy yaxlit idrok etishni, geografik qamrovda mushohada yuritishni, bir so'z bilan aytganda, geografik madaniyatni tarbiyalash;

-tevarak-atrofni idrok qilishning muhim vositasi va uslubi bo'lgan xaritadan mohirona foydalana bilishni o'rgatish;

-har qanday shaxs, tabiat va jamiyat bilan munosabatning eng oqil me'yorlariga amal qilishni, buni muhim sharti esa, ularga kompleks yondashish zarurligini anglatmoq;

-har bir fuqoroning o'zi yashab turgan ijtimoiy muhitda samarali faoliyat ko'rsatishiga zarur bo'lgan bilim va malaka berish bilan ro'yobga chiqishi va rivojlanishini ta'minlash.

Bugungi kunda tevarak-atrofni idrok qilishning muhim vositasi va uslubi bo'lgan xaritadan mohirona foydalanishda eskicha yondashuvlardan qochishimiz lozim (xaritalarni o'qituvchi tomonidan ko'tarib dars jarayoniga olib kirib foydalangandan ko'ra), axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan dars jarayonining o'zida maxsus saytlardan foydalangan holda xaritalarni topib (mavzuli xaritalarni) foydalanish o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi jarayonni yanada sermazmunroq olib borilishida samara yuqori bo'ladi.

An'anaviy dars o'tish jarayonida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalanilib kelgan. Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib



o'quvchilar ta'lism jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qolganlar. Hozirgi davr talabi o'quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan-ki, unda yangi interfaol metodlarni qo'llash katta samara bermoqda.

Zamonaviy ta'lism tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bunga erishishni asosiy yo'lli AKTdan to'g'ri foydalanishdir.

**Texnik vositalarni** qo'llashni quyidagi afzalliklari mavjud:

-qiziqlarligi, o'quvchilar birinchidan texnika vositalarini o'ziga qiziqsa, ikkinchi tomondan uni ishlatalishga va unda ko'rsatilgan ma'lumotlarga qiziqishsa;

-voqealarni tez rivojlanishi va aniq kuzatishlari o'quv materiallarini tez o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, tabiiy geografik jarayonlarni sodir bo'lisi, tekislik va tog' rel'efining turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari tropik o'rmonlarning sharoiti ishlab chiqarish jarayoni va h.k.

-turli vositalar orqali murakkab o'quv materialini oson tushuntirish mumkin. Masalan, havo massalarini vujudga kelishi, imkon va antitsiklonlarni shakllantirish, tornado, tsunami va boshqa tabiiy geografik jarayonlarni hosil bo'lisi va ularning oqibatlari;

-o'quvchilar qabul qilishi murakkab bo'lgan geografik ob'ektlarni texnik vositalar orqali osongina bajarish mumkin. Masalan, temir yo'l paromi, dengizdag'i neft qazib oladigan moslamalar va h.k.

Geografiya darslarida oldindan epidoskop va kodoskoplardan foydalanishgan. Hozirgi kunda kompyuterlardan foydalanib axborotlarni olish imkonini hosil bo'ldi.

Bunda asosiy muammo bo'lib maktablarning to'liq kompyuter bilan jihozlanmaganligi, eki undan foydalanishning bilmaslik bo'lib turibdi. Shu sababli ham informatsion texnologiyalardan foydalanishda ayrim shart-sharoitlarini ko'rsatib o'tish lozim:

-geografiya o'qituvchisi informatsion texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lisi shart;

-umumta'lum maktablari o'quvchilari kompyuterlardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lisi shart;

- umumta'lum maktablarida kompyuterlar sinfi bo'lisi shart.

Geografiya ta'limi umumiyl o'rta ta'lum maktablarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonning ajralmas va uzviy bog'langan tarkibiy qismi sifatida mazkur ta'lum muassasasi oldiga qo'yilgan umumiyl maqsadlarga muvofiq barkamol o'quvchi shaxsini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, geografiya ta'limi o'quvchilarda Yer to'g'risidagi ilmiy dunyoqarashlarni shakllantiradi, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni tarkib toptiradi, dunyo davlatlari va turli regionlarda jamiyat va tabiatning o'zaro bog'liqligi, geografik ob'ekt, jarayon va hodisalar haqidagi bilim va tushunchalar bilan qurollantiradi, umuminsoniy madaniyatni tarkibiy qismi bo'lgan geografik madaniyatni tarbiyalaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalda tadbiq etishning so'nggi bosqichida sifat va samaradorlik ko'rsatkichlari ta'lum va tarbiyaviy jarayonining asosini tashkil etishi belgilab qo'yilgan. Bu borada bajarilayotgan ishlarning negizida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash asosiy vazifa sifatida belgilangan. Shu maqsadda ta'lum tizimida milliy dasturni amalga oshirishning asosiy talablari mavjud o'quv rejalar, dastur, darslik, o'quv qo'llanma va metodik ishlanmalarni fanning so'nggi yutuqlari, malakali pedagoglar tomonidan beriladigan tavsiyalar va ishlanmalar bilan o'zgartirilib, boyitilib borishiga va ularni ko'rgazmalilik, qisqa muddatda axborotlarni qabul qilishlik darajasiga qaratilgan.

O'quvchilarning geografik bilish faoliyatini faollashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan har bir dars jarayoni, unda qo'llanilayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, o'quvchilarda ijtimoiy normalarga mos ongli intizomning vujudga kelishi, geografiya faniga motivatsiyaning yuqori darajada bo'lismiga, bilim, ko'nikma va malakalarni ongli o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi ko'zlangan natijaning kafolatlanganligi va samaradorlikning yuqori bo'lisi bilan qimmatlidir.

Xulosa qilib aytganda, audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida geografiyaga oid o'quv materiallarini o'quvchilarga etkazib berishda zamonaviy vosita hisoblanmish-axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli hayotimizda borgan sari ortib bormoqda. Haqiqatdan ham geografiya fanining turli sohalarida aynan axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga suyanishimiz davr talabidir.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdug'aniev I. Geografiya darslarida ta'limning texnika vositalaridan foydalanish. Toshkent.: O'qituvchi, 1990.-135-bet.
2. Abdieva Z. A. Geografiya fanida noan'anaviy dars usullaridan foydalanish. Navoiy.: Institut, 2003.-107-bet.
3. Internet ma'lumotlar.



## IQLIM O'ZGARISHLARI VA UNING SALBIY OQIBATLARI

**Erkinov Rustam Atabayevich**

Xorazm viloyati Urganch tumani

10-son umumiy o'rta ta'lif maktabning  
geografiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunning asosiy muammolaridan biri iqlim o'zgarishlari, uning kelib chiqish sabablari, oqibatlari va oldini olish yo'llari haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** iqlim o'zgarishlari, havo, harorat, atrof- muhit, issiqxona, gaz.

Yer sayyorasida umumiy haroratning ko'tarilishi atrof muhitning, ayniqsa atmosfera havosining zararlanganligini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Atmosfera havosi tarkibida qator zararli moddalar miqdorining ko'payishi nafaqat haroratning, balki sayyoramizning barcha mintaqalarining iqlimi o'zgarishiga olib kelmoqda.

Iqlimshunoslarning ma'lumotlariga ko'ra, iqlim o'zgarishining asosiy sababi yer yuzasidan chiqadigan uzun to'lqinli radiatsiyani yutib atmosferada issiqxona effekti hosil qilayotgan gazzlardir. Shu toifaga kiruvchi gazlar "Issiqxona gazlari" deb ataladi. Bu jarayonning mohiyati quyidagicha: quyoshdan keladigan radiatsiyaning bir qismi (30 foiz) atmosfera tufayli bulutlar orqali kosmosga qaytadi. 15 foiz atrofidagisi esa, atmosfera qatlamlarida yutiladi, qolgan energiya atmosferadan o'tib yer yuzasiga yetib keladi va uni isitadi. Yer o'z navbatida atmosfera orqali uzun to'lqinli infraqizil nurlarni koinotga qaytaradi. Ushbu nurlarning bir qismi koinotga chiqib ketish o'rniga issiqxona gazlari tomonidan yutiladi va shu asosda atmosfera me'yordan ortiq qiziydi va nihoyat yer iqlimiga ta'sir ko'rsatadigan issiqxona qatlami hosil bo'ladi. Issiqxona paydo qiladigan gazlarning atmosferada ortishi esa, yuqorida qayd qilinganidek, insonlarning faoliyati bilan bog'liq.

Shu bilan birgalikda, atmosfera havosiga chiqarilayotgan issiqxona gazlari global isishga sababchi bo'lib iqlim o'zgarishlarini keltirib chiqarmoqda. Dunyo hamjamiyati, shu jumladan mutaxassislar tomonidan bekorga bong urilmayapti. Dunyo miqyosida atmosfera havosiga chiqarilayotgan tashlamlalar miqdori shu sur'atlarda ketsa, global isish va iqlim o'zgarishlari natijasi bashorat qilib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkinligi ta'kidlanmoqda.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, iqlim o'zgarishi tufayli sodir bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlar qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- hozirgi yuz yillikning o'zida okeanlar sathi 1 m ko'tarilishi;
- SO<sub>2</sub> konsentratsiyasi atmosfera havosida ortishi (1870-yildan beri uni miqdori 30 foiz ortdi);
- Yerning ustki qobig'i harorati +0,7°C ga o'zgargan (so'nggi yuz yil ichida).
- suv resurslari taqchilligining kuchayishi, shuningdek hududlarda ichimlik suvining yetishmasligi hamda muzlik va qor qoplami kunlarining 7-10 kunga kamayib borishi, qurg'oqchilik takrorlanishining ko'payishi (hozirgi davrda har 10 yilning 3 yilda).
- tabiiy ofatlarning ortishi – sellar, toshqinlarning tez-tez takrorlanishi (so'nggi 40 yil ichida tabiiy ofatdan bo'lgan zarar miqdori 10 marotabaga oshgan);
- o'rtacha haroratning oshishi, yillik issiq davrlarning 10-15 kunga o'sib borishi;
- yog'ingarchilikning yillik o'rtacha darajasini mamlakatni butun hududi bo'ylab pasayishi va ularning hududlar, vaqt hamda miqdori bo'yicha notekis tarqalishi, haddan tashqari kuchli yog'ingarchilikli va umuman yog'ingarchiliksiz kunlar sonining ortishi;
- qishloq xo'jaligidagi yetishtirish uchun maqbul ekinlar tarkibi butunlay o'zgarishi;
- yuqori darajadagi jaziramalar takrorlanishining oshishi, harorat rejimi kuchayishi natijasida aholi salomatligi bilan bog'liq muammolar ko'payishi;
- o'simliklar va hayvonlarning aksariyat turlari yashaydigan areallarning qayta taqsimlanishi, demak, ekologik jarayonlar, beriladigan mahsulotlar va bajariladigan funksiyalarning tubdan o'zgarishi;
- sahrolanish jarayonlarining kuchayishi, ya'ni, yashash va xo'jalik yuritish mumkin bo'lgan yerlarning kamayishi;
- iqtisodiyot sektorlari ta'sirining to'liq qayta taqsimlanishi va oldindan aniq aytish qiyin bo'lgan boshqa ko'pgina oqibatlari.

Iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish uchun quyidagi chora-tadbirlarni



amalga oshirish talab etiladi:

Birinchidan, issiqxona gazlarini kamaytirish. Buning uchun birinchi navbatda ishlab chiqarish korxonalari, IES va boshqa atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqaruvchi tashkilotlarda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish. Ikkinchidan, yoqilg‘ilar sifatini yanada yaxshilash hamda ekologik toza transport vositalarini ko‘paytirish, shu jumladan keng jamoatchilik uchun qulay bo‘lgan veloyo‘lakchalar tashkil etish.

Uchinchidan, ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish. Tabiiy drenaj hisoblangan ko‘p yillik daraxtlarning ekilishi hududdagi mikroiqlimni yumshatishga sabab bo‘ladi. Shuningdek, Ko‘kalamzorlashtirilgan hududlarni, ayniqsa shahar va avtomobil yo‘llari chetida yashil hududlarni kengaytirish. To‘rtinchidan, suvdan oqilona foydalanish. Tomchilab sug‘orishni tashkil etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish.

Beshinchidan, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, ya’ni chiqindisiz texnologiyalar, energiyatejamkor, resurstejamkor, chiqindisiz, kam chiqindili texnologiyalardan foydalanishni joriy etish yoki boshqacharoq qilib aytganda mamlakatda yashil iqtisodiyotni joriy etish.

Oltinchidan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish. Quyosh, shamol energiyalaridan foydalanish bilan birgalikda atom energetikasini rivojlantirish orqali atmosferaga issiqxona gazlari chiqarilishini oldini olish orqali iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini ma’lum bir darajada kamaytirish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiyl o’rta ta’lim maktablarining geografiya fani darsliklari.
2. Wikipedia malumotlari.
3. [www.medium.com](http://www.medium.com)

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 25-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.08.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000